



**YUQUMLI VA YUQUMLI BO'LMAGAN KASALLIKLARGA SUV
FAKTORINI TA'SIRINI O'RGANISH (Qoraqolpog'iston respublikasi) misolida**

Primjarova Nursaule Uzakbayevna

Gigiena va atrof muhit, epidemiologiya kafedrası

Qoraqolpog'iston Tibbiyot Instituti, Nukus

Ilmiy rahbar- kafedra t.f.n V.K.Absattarova

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqotda Qoraqolpog'iston Respublikasi misolida suv omilining aholi salomatligiga ta'siri o'rganiladi. Asosiy e'tibor ichimlik suvi sifati bilan bog'liq yuqumli va yuqumli bo'lmagan kasalliklarning tarqalishiga qaratilgan. Tadqiqot davomida suvning kimyoviy va mikrobiologik ko'rsatkichlari hamda ularning aholi orasida uchraydigan kasalliklar bilan bog'liqligi tahlil qilinadi. Olingan natijalar hududda suv sifati va sanitariya holatini yaxshilash hamda kasalliklarning oldini olish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *ichimlik suv, ko'rsatkich, kasalliklar, sifat, Qoraqolpog'iston*

Dolzarbligi: Ichimlik suvi - bu inson salomatligi uchun zarur manbalardan biri hisoblanadi. JSST ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi bolalarning 70% i ichimlik suvi sifati va suv ta'minotining sanitariya-gigiyena me'yorlarini buzilishi bilan bog'liq. Suvning tarkibi va xususiyatlari ko'rsatkich bo'yicha me'yorlarni oshmasligi, zararli moddalarning konsentratsiyasi xo'jalik-ichimlik yoki madaniy-maishiy maqsadlardagi suv obyektlaridagi cheklangan ro'yxatdan o'tkazilgan konsentratsiyalardan (PDK yoki boshqa standartlardan) oshmasligi kerak. Suv bakteriyalarni o'sish uchun ajoyib muhit bo'lib, suv orqali ko'plab kasalliklar tarqalishi mumkin. Sanitariya-gigienk va epidemiyaga qarshi tadbirlarni keng qamrovda o'tkazish yirik epidemiya holatlarining noqonuniy suvdan foydalanish bilan bog'liqligini to'xtatishga yordam beradi. Shunga qaramasdan, suv orqali yuqadigan yuqumli kasalliklarni to'liq yo'q qilish hanuzgacha muvaffaqiyatli bo'lgani yo'q. {1-38b}

Janubiy Orolbo'yi mintaqasida degradatsiyaning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri suv resurslariga katta antropogen ta'sir natijasida aholi tomonidan ichimlik suvi uchun foydalaniladigan suv sifatining pasayishi hisoblanadi. Ichimlik suvining sifati tibbiy-ekologik tadqiqotlarda yetakchi o'ringa ega bo'lib, u muayyan hudud aholisi o'rtasida kasalliklarning tarqalishiga bevosita ta'sir ko'rsatishi bilan birga, jamiyatning turmush tarzi va xo'jalik faoliyati xarakterini shakllantiradi. {2-105B}

Qurg'oqchilik sharoitida bu chuchuk suv gorizontlarini (linzalarini) saqlab qolish, foydali maydonini kengaytirish bilan ularning sig'im zaxiralarini ko'paytirish, suvni ifloslantiruvchilardan tabiiy o'zini o'zi tozalash va shu orqali aholining yil davomida ichimlik suviga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashning yagona usuli hisoblanadi. {3-499b}





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Ichimlik suvining actual muomosi ifloslanishidir, bunda ba'zi joylarda og'ir metallarning ortiqcha miqdori aniqlanmoqda. Qoraqalpog'istondagi aholi punktlarining ko'pchiligi ichimlik suvini tayyorlash binolarining eski an'anaviy tarkibiga ega; tindirgichlar, tez filtrlar, zararsizlantirish, odatda, xlorlash orqali amalga oshiriladi. Amaliyot va tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, Qoraqalpog'iston Respublikasida ichimlik suvining sifati suv ta'minoti bo'yicha sanitariya-gigiyena talablariga, birinchi navbatda organoleptik ko'rsatkichlar, xloridlar miqdori, qattiqligi, organik birikmalar miqdori bo'yicha javob bermaydi.

Ohirgi paytlarda QR yer osti ichimlik suvlarida Si, Al, Fe, Zn, Mn, Cd, Ba, Mo kabi ayrim og'ir metallar va mikroelementlarning mug'dor darajalari o'zgargan. {4-987}

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, Qoraqalpog'iston Respublikasining Mo'ynoq, Amudaryo, Beruniy, Ellikqal'a, To'rtko'l, Chimboy, Nukus tumanlari aholisida ekologik vaziyat, jumladan, ichimlik suvi sifatining buzilishi oqibatida buyrak-tosh kasalliklari kuzatilgan. Buyrak tosh kasalligi 2001-yildagi 0,2 dan 2009-yilda 0,51 gacha (1000 kishiga) o'sdi. 2010-yilda bu ko'rsatkich 0,27 gacha pasaygan. Qoraqalpog'iston Respublikasining qishloq joylarida yashovchi aholi orasida buyrak tosh kasalligi 4,2 barobarga ko'paygan. Ushbu tadqiqotda Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisining buyrak-tosh kasalliklari bilan kasallanish darajasi va vodoprovod suvining kimyoviy ifloslanishi o'rtasida aniq korrelyatsion bog'liqlik borligi aniqlandi.. {5-446b}

Tadqiqot maqsadi Qoraqalpog'iston Respublikada suv omilining aholi o'rtasidagi yuqumli va yuqumli bo'lmagan kasalliklarga ta'sirini o'rganish va baholash, Suv omillari va kasalliklar o'rtasidagi bog'liqligi analiz qilish.

Materiallar va tadqiqot usullari. Aholi o'rtasidagi yuqumli va yuqumli bo'lmagan kasalliklar bo'yicha statistic valumotlar, ichimlik suv sifati bo'yicha sanitariya-gigienik ko'rsatkichlar, tibbiyot muassasalari hisobotlari, rasmiy statistic malumotlar,

1. Statistik usul
2. Qiyosiy tahlil
3. Gigienik baholash
4. Korelyacion tahlil
5. Tahlilliy usul

Natijalar va ularning muhokamasi. Ichimlik suv sifati aholi salomatligiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Turli tadqiqotlarda suvning mikrobiyologik va kimyoviy tarkibi o'garishi yuqumli va yuqumli bo'lmagan kasalliklar tarqalishiga bevositida o'z ta'sirini ko'rsatishi qayd etilgan. Ichimlik suvining ifloslanishi ichak infekciyalar, jumladan deareya, va boshqa yuqumli kasalliklar tarqalishnng asosiy sabablardan biri bo'lib hisoblanadi. Ayniqsa sanitariya holati past hududlarda ko'p uchrashmoqda. Suv tarkibidagi zaharli moddalar meyordan oshganda, aholi o'rtasida anemiya, buyrak va endokrin tizim kasalliklar rivojlanishi mumkinligi adabiyolarda keltirilgan.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Qoraqolpog'iston Respublikasi ekologik jixatdan og'ir hududlar qatoriga kirganligi sababli bu muammo dolzarb hisoblanadi. Shu sababli, suv resurslari muxofaza qilish, ichimlik suv sifatini yaxshilash va aholiga xaffsiz suv bilan taminlash masalariga alohida e'tibor qaratish lozim.

Xulosa. Adabiyotlar taxlili natijalar suv omilining aholi salomatligiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi va bu yo'nalishda profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytrish zarurligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Алламуратов К. К. Качество воды и здоровье населения Республики Каракалпакстан //Теория и практика современной науки. – 2016. – №. 6-1 (12). – С. 37-45.

2 Бегжанова Г.Т СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ КАЧЕСТВА ПИТЬЕВОЙ ВОДЫ В РЕГИОНЕ ЮЖНОГО ПРИАРАЛЬЯ Теория и практика современной науки" №6(12) 2016 105стр

3 Джаксымуратов К. и др. Исследование режима, ресурсов и использование подземных вод Южного Приаралья (Республика Каракалпакстан) //Экономика и социум. – 2020. – №. 12 (79). – С. 497-501

4.Хожамуратова Р.Т., Тлеуов Н.Р ПРОБЛЕМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ ЮЖНОГО ПРИАРАЛЬЯ БЕЗОПАСНОЙ ПИТЬЕВОЙ ВОДОЙ "Экономика и социум" №11(102)-1 2022 www.iupr.ru

5. K. U. Rozumbetov I. I. Najimov S. N. Nisanova A. T. Matchanov ОЦЕНКА СОСТОЯНИЯ ЗДОРОВЬЯ НАСЕЛЕНИЯ ПРИАРАЛЬЯ стр446

